JALOLQUDUQ TUMANIDA JOYLASHGAN ZIYORATGOHLAR EKOLOGIYASI

Akmalova Feruzaxon Furqat qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jalolquduq tumanida joylashgan ziyoratgohlar va Ibn Muslim Qutayba zioratgohi, shuningdek,tabiiy yodgorliklar, ziyoratgohlar, qadamjolar alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tepaliklar, ming yillik daraxtlar, tog‘lardagi g‘orlar, buloqlar, daraxtzorlar kabilar haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Jalolquduq tumani, ziyoratgohi, Andijon, daraxtlar, maqbara, ilmiy tadqiqot, islom dini, uchbuloq, mahalliy xalq

Аннотация: В данной статье приведены научные сведения о святынях и святилище Ибн Муслима Кутайбы, расположенных в Джалалкудукском районе, а также памятниках природы, святилищах, холмах особого значения, тысячелетних деревьях, горных пещерах, родниках, рощах и т.д.

Ключевые слова: Джалалкудукский район, святыня, Андижан, деревья, мавзолей, научные исследования, ислам, трезубец, местные жители.

Annotation: This article contains scientific information about shrines and Ibn Muslim Qutayba shrine located in Jalalquduq district, as well as natural monuments, shrines, hills of special importance, thousand-year-old trees, mountain caves, springs, groves, etc. given

Key words: Jalalquduq district, shrine, Andijan, trees, mausoleum, scientific research, Islam, trident, local people

Kirish. Jalolquduq tumanida joylashgan ziyoratgohlar, jumladan Ibn Muslim Qutayba ziyoratgohi bo‘yicha ko‘plab olimlar o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.Jumladan,Ismoil Haqqiy “Tafsir ul-rux ul-bayon”asari,Abu Rayhon Beruniy ”Osorul-boqiya”asarida keltirib o‘tgan.

Ismoil Haqqiy “Tafsir ul-rux ul-bayon”asarida keltirilishicha,”Qutayba ibn Muslim hazratlari Jayhun qirg‘oniga kelganida o‘z askarlaridaga qarata:”Ey birodarlar! Qalbingizda zarracha dunyo havasi bo‘lsa shu qirg‘oqda qoling,Alloh qalbingzda bo‘lsa menga ergashing” Olimjon Raximov (2018) “Qutayba Ibn Muslim” asarida uning tarixi,buyuk shaxs ekanligi Islom dinini yoritishda qahramonliklarini yoritib o‘tilgan”

Tabiiy yodgorliklar, ziyoratgohlar, qadamjolar deganda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tepaliklar, ming yillik daraxtlar, tog‘lardagi g‘orlar, buloqlar, daraxtzorlar va shu kabilarni kiritish mumkin. Bularga misol qilib Sarvontepa, Qo‘shtepa, Oqtepa, Mingtepa, Dalvarzintepa, Teshiktosh, Kujgandagi ko‘p asrlik chinor daraxti,

Baliqchidagi Uchbuloq, Andijon shahridan bir vaqtlar oqib o‘tgan To‘qqiz ariq kabilar viloyatimizning tabiiy yodgorliklariga kiradi.

Jalolquduq tumani viloyatning eng yaxshi rivojlangan tumanlaridan biri. Bu yerda aholiga xizmat qiluvchi ko‘p tarmoqli ijtimoiy infra tuzilmalar shakllangan bo‘lib, ulardan eng muhimi Janubiy Olamushukdagi sihatgoh hisoblanadi. Bu maskandan mahalliy aholi salomatliklarini tiklashda doimiy raviShda foydalanib kelishadi. Undan tashqari Qutayba ibn Muslim[14] yodgorligi – yirik islom fotihlaridan biri bo‘lgan, arabiy sarkarda Qutayba ibn Muslim binni Amr al-Bahiliy (r.a.) (660-715) nomi bilan bog‘liq. Xalq orasida “Imom Shayx Qutayba mozori” deb ham ataladi. Yodgorlik Andijon-Xonobod yo‘li bo‘yida, Jalolquduq tumani “Gurunchmozor” (Qilichmozor) qishlog‘ida joylashgan.

Ikki xonali maqbaraning asosiy xonasi tashqarisi kvadrat asosida qurilgan bo‘lib, ichkarisi sakkiz burchakli, tomonlari chuqur mehrobsimon ravoqlar bilan ko‘tarilib, diametri 5,5 metrli “Sholg‘omi” gumbazi bilan yopilgan, o‘rtada oddiy qabr bor. Maqbara g‘arbidagi dahliz ziyoratchilar uchun mo‘ljallangan. Ravoqlar orasiga sakkizta yoysimon uchburchak Shaklidagi qomchoqli ganch va gumbaz osti zardevoriga yengil naql bitilgan.

Mahalliy xalq bilan bo‘lgan 30 yillik islomiy jihod urushi to‘liq natija bermagach, 706 yilda xalifa Yusuf Hojjoj Abdumalik ibn Mervon Farmoni bilan Xuroson amiri lavozimiga tayinlangan va unga Movarounnahrni uzil-kesil fath etish vazifasi yuklatiladi.

Halifa Yusuf Hojjoj vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Sulaymon ibn Abd al-malik taxt talashib Qutayba (r.a.) qo‘shini orasida isyon uyushtiradi. Lashkarboshisi Bokiy ibn al-Asvod sarkardani qatl qiladi va kesilgan boshini Sulaymonga yuborib, tanasi 11 nafar yaqinlari va farzandlari bilan shu joyga ko‘miladi.

Aytishlaricha, Sohibqiron Amir Temur bu joylarni ziyorat qilib, Samarqanddan me’mor jo‘natib, Qutayba ibn Muslim (r.a.) qabri ustiga ko‘rkam va mahobatli maqbara qurdirgan.

Bu maqbara 1935-1936- yillarda dahriylar tomonidan buzib tashlangan. 1971-1976- yillarda viloyat rahbari Bektosh Rahimov tashabbusi bilan milliy me’morchilik an’analari asosida qayta qurilgan.

Jalolquduq tumanidagi bu tarixiy obidani Andijon-Xonobod marshrutiga qo‘shib ziyorat qilish mumkin bo‘ladi.

Jalolquduq Andijonsoy bo‘yida 65-raqamli quduq atrofidan chiqadigan harorati 70^0 ga teng bo‘lgan mineral suv tayanch bo‘g‘inlarni davolashda ahamiyatli bo‘lib, undan aholi keng foydalanadi, ammo bu joylar ta’mirlash va obodonlashtirish ishlariga muhtoj.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda eski qadimiy tarixiy obidalar soni juda ko‘p bo‘lib ularga insonlar tomonidan e’tibor kerak.Ko‘plarini ta’mirlash ishlarini olib borib qayta tiklash lozim.O‘zbekiston uzoq ming yillik tarixga ega bo‘lganligi kabi yurtimizda yana arxitektura qidiruv ishlarini olib boorish topilmagan tarixni ochish va dunyo tamadduniga O‘zbekiston tarixini ko‘rsatib berish xaqlimizning oldida turgan asosiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz – Toshkent: O‘zbekiston, 2017-y.
2. A.Asqarov “O‘zbekiston tarixi” 1994-y
3. To‘xtaev A. S., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. Toshkent: O‘qituvchi, 1964-y.